**Kalit so'zlar:** xalq diplomatiyasi, milliy imij, turizm diplomatiyasi, raqamli kommunikatsiya, ijtimoiy media marketing, "Nation Brand Hexagon", "yumshoq kuch", milliy brend.

**Abstract.** In the context of globalization, the international position of states is increasingly shaped by information flows, cultural-humanitarian cooperation and effective public communication mechanisms. Public diplomacy is recognized as a key "soft power" tool that advances national interests and shapes a positive international image of the state through culture, education, tourism, arts, science and youth initiatives. Based on Simon Anholt's "Nation Brand Hexagon" model, this study analyzes the effectiveness of tourism diplomacy and digital communications in strengthening the national brand. The growing role of tourism diplomacy, visa liberalization and active promotion in social media have significantly increased global interest in the country. In the "New Uzbekistan Development Strategy" and the "Uzbekistan 2030" concept, the institutionalization of public diplomacy is defined as a strategic priority for enhancing the national image. The synergy of national values and innovative communication approaches contributes to building the intellectual and cultural foundation of the emerging Third Renaissance.

**Key words:** public diplomacy, national image, tourism diplomacy, digital communications, social media marketing, "Nation Brand Hexagon", "soft power", national brand.

**Аннотация.** В условиях глобализации международный статус государств все более определяется информационными потоками, культурно-гуманитарным сотрудничеством и эффективными механизмами общественной коммуникации. Народная дипломатия признается важным инструментом 'мягкой силы', способствующим продвижению национальных интересов и формированию позитивного международного имиджа государства через культуру, образование, туризм, искусство, науку и молодежные инициативы. В исследовании на основе модели "Nation Brand Hexagon" Саймона Анхолта проанализирована эффективность туристической дипломатии и цифровых коммуникаций в укреплении национального бренда. Стратегическое развитие туристической дипломатии, упрощение визовых процедур и эффективное продвижение в цифровых медиа заметно усилили глобальный



интерес к стране. В “Стратегии развития Нового Узбекистана” и концепции “Узбекистан 2030” институционализация народной дипломатии определена в качестве одного из приоритетных направлений укрепления национального имиджа. Интеграция национальных ценностей и инновационных коммуникаций способствует формированию интеллектуально-культурного фундамента Третьего Ренессанса.

**Ключевые слова:** народная дипломатия, национальный имидж, туристическая дипломатия, цифровые коммуникации, маркетинг социальных сетей, “Nation Brand Hexagon”, “мягкая сила”, национальный бренд.

## KIRISH

Zamonaviy globallashuv sharoitida davlatlarning xalqaro maydondagi mavqei tobora ko‘proq ularning harbiy yoki iqtisodiy salohiyati bilan emas, balki xalqaro hamjamiyat ongida shakllanayotgan ijobiy imiji, madaniy nufuzi va kommunikativ ta’sir kuchi bilan belgilanmoqda. Axborot oqimlarining jadallashuvi, raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi hamda jamoatchilik fikrining global siyosiy jarayonlardagi rolining ortishi natijasida tashqi siyosatning an’anaviy instrumentlari bilan bir qatorda yangi, noan’anaviy mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, xalq diplomatiyasi davlat imijini shakllantirish va mustahkamlashda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan muhim tashqi siyosiy vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xalq diplomatiyasi davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarga tayanib, madaniyat, ta’lim, ilm-fan, san’at, turizm, media va jamoatchilik tashabbuslari orqali xorijiy auditoriyalarda ijobiy tasavvur hosil qilishga qaratilgan tizimli jarayonni ifodalaydi. Ushbu yondashuv “yumshoq kuch” konsepsiyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, davlatning jozibadorligi va ishonchliligini oshirish orqali xalqaro hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar xalq diplomatiyasini o‘z tashqi siyosiy strategiyalarining ajralmas qismiga aylantirib, uni milliy manfaatlarni ilgari surishning samarali mexanizmi sifatida qo‘llamoqda.

O‘zbekiston Respublikasi uchun ham xalq diplomatiyasini rivojlantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi. So‘nggi yillarda mamlakatda amalga oshirilayotgan ochiq va pragmatik tashqi siyosat, madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirish, xalqaro muloqotni faollashtirish hamda milliy brendni shakllantirishga qaratilgan islohotlar O‘zbekistonning xalqaro imijini tubdan yangilashga xizmat qilmoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar ham mamlakatning tinchliksevar, ishonchli va hamkorlikka ochiq davlat sifatidagi qiyofasini mustahkamlashda xalq diplomatiyasining rolini yanada oshirishni nazarda tutadi.

Mazkur maqolada xalq diplomatiyasining nazariy asoslari, uning “yumshoq kuch” konsepsiyasi bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda rivojlangan davlatlar tajribasi tahlil qilinadi. Shuningdek, xalq diplomatiyasining O‘zbekiston xalqaro imijini shakllantirishdagi o‘rni va istiqbollari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari xalq diplomatiyasini tashqi siyosatning samarali instrumenti sifatida takomillashtirish va uni milliy rivojlanish strategiyalari bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha amaliy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat imijini shakllantirish va mustahkamlash masalalari so‘nggi o‘n yilliklarda xalqaro munosabatlar va siyosiy kommunikatsiya tadqiqotlarining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu jarayonda xalq diplomatiyasi va “yumshoq kuch” konsepsiyasi markaziy o‘rin tutadi. Mazkur yondashuvlarning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari hamda davlat brendi bilan o‘zaro bog‘liqligi ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan atroflicha o‘rganilgan.

Davlatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini brend kategoriyasi orqali tahlil qilgan Simon Anholt davlatlar, shaharlar va hududlar uchun “raqobatli identifikatsiya” (competitive identity) konsepsiyasini ishlab chiqqan. Uning fikricha, davlat imiji faqat reklama yoki tashqi kommunikatsiya mahsuli emas, balki siyosat sifati, madaniyat, eksport mahsulotlari, turizm va xalqaro munosabatlarning uzviy uyg‘unligi natijasida shakllanadigan kompleks hodisadir. Anholt yondashuvi davlat imijini boshqarishda madaniy va ijtimoiy omillarning strategik ahamiyatini asoslab beradi, bu esa xalq diplomatiyasining institutsional rolini kuchaytiradi.

“Yumshoq kuch” tushunchasining ilmiy muomalaga kiritilishi Joseph S. Nye nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u davlatlarning ta’sir kuchini majburlash va rag‘batlantirishga asoslangan “qattiq kuch”dan farqli ravishda jozibadorlik, qadriyatlar va madaniyat orqali ta’sir ko‘rsatish mexanizmi sifatida izohlaydi. Nye tomonidan ilgari surilgan ushbu konsepsiya xalq diplomatiyasining nazariy poydevorini tashkil etib, madaniyat, siyosiy qadriyatlar va tashqi siyosat legitimligini davlat imijini shakllantiruvchi asosiy omillar sifatida ko‘rsatadi. Uning tadqiqotlari xalq diplomatiyasini zamonaviy tashqi siyosatning ajralmas instrumenti sifatida ilmiy jihatdan mustahkamlab berdi.

Xalq diplomatiyasining amaliy samaradorligini baholashda xalqaro reyting va indekslar muhim manba hisoblanadi. Brand Finance tomonidan e’lon qilinadigan Global Soft Power Index davlatlarning global jozibadorligini biznes, madaniyat, ta’lim, boshqaruv va xalqaro ta’sir ko‘rsatkichlari asosida baholaydi. 2024-



ilgi hisobotda yetakchi davlatlarning yuqori pozitsiyalari ularning nafaqat iqtisodiy qudrati, balki samarali xalq diplomatiyasi va madaniy ta'sir mexanizmlariga ega ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu indeks xalq diplomatiyasining investitsiyalar, turizm va diplomatik ishonch bilan bevosita bog'liqligini empirik jihatdan ko'rsatib beradi.

Xalq diplomatiyasining raqamli transformatsiyasi masalalari N. A. Tsvetkova tadqiqotlarida chuqur tahlil qilingan. U AQSh misolida Web 2.0 texnologiyalarining ommaviy diplomatiyada qo'llanilishi, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar orqali xorijiy auditoriyalar bilan muloqotning yangi shakllari yuzaga kelganini asoslaydi. Tsvetkova raqamli diplomatiyani davlat imijini tezkor va moslashuvchan tarzda shakllantirish imkonini beruvchi muhim vosita sifatida baholab, zamonaviy xalq diplomatiyasining kommunikativ tabiatini ochib beradi.

Sharq mamlakatlari tajribasini tahlil qilgan Z. G'. Kasimova madaniy diplomatiya orqali davlat ijobiy imijini shakllantirish jarayonlarini Yaponiya va Xitoy Xalq Respublikasi misolida o'rganadi. Uning dissertatsion tadqiqotida madaniyat, ta'lim, san'at va tarixiy merosdan tizimli foydalanish ushbu mamlakatlarning global nufuzini oshirishda muhim rol o'ynagani asoslab beriladi. Muallif madaniy diplomatiyani xalq diplomatiyasining asosiy tarkibiy qismi sifatida baholab, uni milliy brendni shakllantirishning uzoq muddatli strategik omili sifatida talqin qiladi.

Umuman olganda, tahlil qilingan ilmiy manbalar xalq diplomatiyasining davlat imijini shakllantirishdagi nazariy va amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi. Ushbu tadqiqotlar xalq diplomatiyasini "yumshoq kuch" konsepsiyasi bilan uzviy bog'liq, ko'p darajali va tizimli tashqi siyosiy mexanizm sifatida baholab, uni zamonaviy global raqobat sharoitida davlatlarning barqaror rivojlanishi va xalqaro mavqeini mustahkamlashning muhim omili sifatida e'tirof etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar ochiq statistik manbalar, xalqaro reyting va hisobotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda yetakchi olimlarning ilmiy ishlari asosida yig'ildi. Olingan ma'lumotlar mantiqiy tahlil, qiyosiy taqqoslash, tizimli yondashuv va umumlashtirish usullari orqali qayta ishlanib, xalq diplomatiyasining davlat imijini shakllantirishdagi roli ilmiy jihatdan baholandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy globallashuv jarayonida davlatlarning xalqaro maydondagi mavqei avvalgidan ham ko'proq axborot oqimlari, madaniy aloqalar, jamoatchilik bilan ishlash mexanizmlari hamda xalqaro hamjamiyat ongida shakllanadigan tasavvurlarga bog'liq bo'lib qoldi. Hozirgi zamon diplomatiyasi nafaqat rasmiy uchrashuvlar, davlatlararo shartnomalar yoki siyosiy aloqalarga tayanadi, balki jamiyatning o'zi orqali davlat haqida ijobiy fikrni shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli jarayonlarga ham asoslanadi. Shu bois xalq diplomatiyasi bugungi xalqaro siyosatda eng muhim drayverlardan biriga aylandi.

Uning asosiy mazmuni mamlakatning madaniyati, qadriyatlari, tarixiy merosi, ilm-fani, badiiy ijodi, san'ati, ta'lim tizimi, turizm industriyasi hamda jamiyatning ijtimoiy faolligini o'z ichiga olgan keng kommunikatsion makon orqali davlatning xalqaro imijini mustahkamlashdan iborat. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Mamlakatimiz va xalqlarimiz o'rtasida madaniy-gumanitar aloqalar, do'stlik va yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash lozim. Biz faol madaniy-gumanitar muloqotni davom ettirish, mamlakatlarimizda madaniyat kunlari va turli ijodiy tadbirlarni muntazam tashkil etish, ta'lim va sayyohlik sohasidagi almashuvlarni "xalq diplomatiyasi"ning eng muhim vositasi sifatida rivojlantirish tarafdorimiz"<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, respublikamizda faol "xalq diplomatiyasi" asosida xorijiy mamlakatlar bilan do'stona munosabatlarni rivojlantirish, turizm sohasidagi hamkorlikni kengaytirish va madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlash, shuningdek mamlakatimizning turli sohalaridagi, xususan turizm yo'nalishidagi yutuqlari mazmuni va mohiyatini targ'ib etish orqali yurtimizning ijobiy imijini shakllantirish olib borilayotgan tashqi siyosatning muhim jihati sifatida namoyon bo'lmoqda.

Xalq diplomatiyasining nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyati ham madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish, xalqlar o'rtasida do'stlik va o'zaro ishonchni mustahkamlash, ta'lim hamda turizm sohalarida almashuvlarni rivojlantirish orqali davlat imijini shakllantirishning eng samarali yo'llaridan biri ekanligi ko'plab olimlar tomonidan ta'kidlab kelinmoqda. Dastlab, xalq diplomatiyasining klassik-zamonaviy konsepsiyasi 1960-yillarning o'rtalarida Tafta universiteti qoshidagi Fletcher nomidagi huquq va diplomatiya maktabi dekani E. Gullion tomonidan taqdim etilgan. U xalq diplomatiyasiga quyidagicha ta'rif bergan: "Xalq diplomatiyasi deganda, biz hukumatlar, alohida guruhlar va alohida shaxslarning boshqa xalqlar hamda hukumatlarning tashqi siyosatiga ta'sir ko'rsatadigan munosabatlari va nuqtayi nazarini o'zgartirishga qaratilgan usullarni tushunamiz"<sup>2</sup>.

1 Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: O'zbekiston, 2018, – B. 272.

2 The Edward R. Murrow Center for Public Diplomacy - Definitions of Public Diplomacy. URL: <http://fletcher.tufts.edu/Murrow/Diplomacy/Definitions>



“Xalq diplomatiyasi”ga berilgan boshqa bir ta’rifda esa: “Xalq diplomatiyasi deganda xorijiy jamoatchilik fikri va kayfiyatlarini o’rganish, ularni xabardor qilish hamda ushbu fikrlarni shakllantiruvchilarga ta’sir etish orqali milliy manfaatlarini ilgari surish va milliy xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan harakatlar tushuniladi”, — deb izohlanadi<sup>3</sup>.


Demak, “xalq diplomatiyasi” atamasi xorijiy mamlakatlar aholisi fikri va xulq-atvoriga ta’sir etish usullaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur atama rus tilida “публичная дипломатия” sifatida samarali tashqi siyosat vositasi deb talqin qilinadi. Biroq ilmiy adabiyotlarda “public diplomacy” atamasining tarjimasida yana boshqa ma’nolar ham mavjud bo’lib, ingliz tilidagi ushbu tushuncha rus tilida ommaviy (публичная) va ijtimoiy (общественная) diplomatiya shakllarida izohlanadi.

Shunday qilib, “ommaviy diplomatiya” va “ijtimoiy diplomatiya” tushunchalari asosan rossiyalik siyosatshunoslarning tadqiqotlarida uchraydi. Ular orasidagi asosiy farq diplomatik faoliyatning subyekti bilan belgilanadi. Jumladan, ommaviy diplomatiyada davlat va davlat tuzilmalari asosiy subyekt sifatida maydonga chiqsa, ijtimoiy diplomatiya fuqarolik jamiyati va uning turli elementlari, xususan, nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyati bilan bog’liqdir. Binobarin, ijtimoiy diplomatiya xalq diplomatiyasining faqat bitta sohasi hisoblanadi, ammo uning sinonimi emas.

Xalq diplomatiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- mamlakatning xalqaro maydondagi obrazini ijobiy shakllantirish;
- chet ellik jamoatchilikda davlat haqida chuqur, xolis va ijobiy tasavvur hosil qilish;
- xalqaro hamkorlikni mustahkamlash;
- milliy manfaatlariga mos global kommunikatsiyani yo’lga qo’yish.

Xalq diplomatiyasi “yumshoq kuch” konsepsiyasining asosiy amaliy vositasi bo’lib, madaniy, media va raqamli diplomatiya mexanizmlari orqali davlatning ijobiy imijini mustahkamlashga hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi (1-rasm).<sup>4</sup>



1-rasm. “Yumshoq kuch” vositalari


3 Цветкова Н.А. Программы WEB 2.0. в публичной дипломатии США // США и Канада: политика, экономика и культура. –2011. –№3. – С. 18.

4 Kasimova Z. G'. Madaniy diplomatiya asosida davlat ijobiy imijini shakllantirish jarayonlari (Yaponiya va Xitoy Xalq Respublikasi tajribasi misolida). PhD dissert. -T. -B. 28




“Yumshoq kuch” atamasi ilk bor mashhur amerikalik siyosatshunos Joseph Nye tomonidan 1990-yilda ilmiy muomalaga kiritilgan. U har bir davlatning ta’sir kuchini ikki turga ajratadi: “qattiq kuch” va “yumshoq kuch”. Shuningdek, uning fikricha, “qattiq kuch” va “yumshoq kuch”ning uyg’unlashuvi natijasida “aqlli kuch” (smart power) konsepsiyasi shakllanadi (2-rasm).<sup>5</sup>

### Jozefer Nay



2-rasm. “Aqlli kuch” konsepsiyasi

Joseph Nye tomonidan ilgari surilgan “yumshoq kuch” konsepsiyasi tashqi siyosat, siyosiy qadriyatlar va madaniyatda namoyon bo’lishini ta’kidlaydi. Biroq boshqa tadqiqotchilar ushbu tushunchaning tarkibiy qismlarini yanada kengaytirishni taklif etadilar. Jumladan, “yumshoq kuch” omillariga davlat boshqaruvi, diplomatiya, madaniyat, ta’lim, biznes va innovatsiyalarni ham kiritish mumkinligi asoslanadi (3-rasm).<sup>6</sup>



3-rasm. “Yumshoq kuch” omillari

Deyarli barcha rivojlangan mamlakatlar “yumshoq kuch” vositasidan faol foydalanib, “xalq diplomatiyasi”ni o’z tashqi siyosiy strategiyasiga kiritgan hamda undan davlat imijini oshirishda samarali tarzda foydalanib kelmoqda. Brand Finance Global Soft Power Index 2024 reytingiga ko’ra, AQSH birinchi o’rinni egallab, global ta’sir kuchi bo’yicha yetakchilikni saqlab qolmoqda (4-rasm).

<sup>5</sup> Nye, Joseph S., Jr. Soft Power: The Means to Success in World Politics. New York: PublicAffairs. 2004. -P. 51

<sup>6</sup> Kasimova Z.G'. “Yumshoq kuch” diplomatiyasi. -T.: “Tafakkur” nashriyoti. 2025. -B. 26



## Global Soft Power Index

The full breakdown of results by nation brand

| Rank 2024 | Rank 2023 |   | Nation Brand         | Region        | Index Score 2024 | Index Score Change | Index Score 2023 | Brand Value 2024 (USD mn) | Brand Value Change | Brand Value 2023 (USD mn) |
|-----------|-----------|---|----------------------|---------------|------------------|--------------------|------------------|---------------------------|--------------------|---------------------------|
| 1         | 1         | = | USA                  | North America | 78.8             | +4.0               | 74.8             | \$32,271,140              | +6.5%              | \$30,309,110              |
| 2         | 2         | = | United Kingdom       | Europe        | 71.8             | +4.5               | 67.3             | \$4,036,790               | -15.8%             | \$4,796,830               |
| 3         | 5         | ▲ | China                | Asia          | 71.2             | +6.2               | 65.0             | \$19,960,020              | -13.5%             | \$23,085,110              |
| 4         | 4         | = | Japan                | Asia          | 70.6             | +5.4               | 65.2             | \$4,406,090               | -1.0%              | \$4,448,780               |
| 5         | 3         | ▼ | Germany              | Europe        | 69.8             | +4.0               | 65.8             | \$4,985,350               | -1.8%              | \$5,075,970               |
| 6         | 6         | = | France               | Europe        | 67.3             | +4.9               | 62.4             | \$3,522,360               | -4.0%              | \$3,669,880               |
| 7         | 7         | = | Canada               | North America | 64.4             | +3.7               | 60.7             | \$2,670,820               | +1.9%              | \$2,621,270               |
| 8         | 8         | = | Switzerland          | Europe        | 62.9             | +4.4               | 58.5             | \$1,065,370               | +3.3%              | \$1,031,600               |
| 9         | 9         | = | Italy                | Europe        | 62.0             | +5.4               | 56.6             | \$2,326,270               | -0.8%              | \$2,345,220               |
| 10        | 10        | = | United Arab Emirates | MENA          | 59.7             | +4.5               | 55.2             | \$1,061,770               | +10.9%             | \$957,250                 |
| 11        | 12        | ▲ | Spain                | Europe        | 59.2             | +4.3               | 54.9             | \$1,755,090               | +1.0%              | \$1,738,560               |
| 12        | 11        | ▼ | Sweden               | Europe        | 59.0             | +3.9               | 55.1             | \$821,640                 | -4.6%              | \$861,180                 |
| 13        | 14        | ▲ | Australia            | Oceania       | 58.6             | +4.0               | 54.6             | \$1,792,610               | +1.8%              | \$1,760,500               |
| 14        | 16        | ▲ | Netherlands          | Europe        | 58.2             | +4.5               | 53.7             | \$1,390,120               | +3.3%              | \$1,345,120               |
| 15        | 15        | = | South Korea          | Asia          | 58.0             | +4.1               | 53.9             | \$1,936,760               | -6.9%              | \$2,080,520               |
| 16        | 13        | ▼ | Russia               | Europe        | 57.7             | +2.9               | 54.8             | \$698,080                 | +2.6%              | \$680,380                 |
| 17        | 17        | = | Norway               | Europe        | 56.8             | +4.2               | 52.6             | \$586,230                 | -0.0%              | \$586,380                 |
| 18        | 19        | ▲ | Saudi Arabia         | MENA          | 56.0             | +4.7               | 51.3             | \$1,040,470               | +10.6%             | \$940,560                 |
| 19        | 18        | ▼ | Denmark              | Europe        | 55.5             | +3.7               | 51.8             | \$586,740                 | +0.6%              | \$583,120                 |
| 20        | 20        | = | Belgium              | Europe        | 55.2             | +4.0               | 51.2             | \$744,340                 | +0.6%              | \$739,660                 |
| 21        | 24        | ▲ | Qatar                | MENA          | 54.5             | +4.6               | 49.9             | \$270,370                 | +12.8%             | \$239,650                 |
| 22        | 21        | ▼ | Singapore            | Asia          | 54.4             | +3.4               | 51.0             | \$704,210                 | +13.1%             | \$622,430                 |
| 23        | 25        | ▲ | Austria              | Europe        | 54.2             | +4.3               | 49.9             | \$597,790                 | -4.6%              | \$626,570                 |
| 24        | 22        | ▼ | Finland              | Europe        | 53.9             | +3.2               | 50.7             | \$355,880                 | -3.8%              | \$369,870                 |
| 25        | 23        | ▼ | Turkey               | Europe        | 53.7             | +3.3               | 50.4             | \$496,420                 | +12.8%             | \$439,960                 |

© Brand Finance Plc 2024

\* All data points have been rounded to the first decimal place.

62

### 4-rasm. Xalqaro "Yumshoq kuch" indeksi

AQSHning yetakchilik pozitsiyasi global media bozori, texnologik gigantlar hamda xalqaro diplomatiyadagi faol rolga tayanadi. Buyuk Britaniya esa kreativ industriyalar va yuqori akademik reputatsiya orqali yuqori o'rinlarni saqlab kelmoqda.

So'nggi yillarda Xitoy va Yaponiya "yumshoq kuch" maydonida jadal o'sish sur'atlarini namoyon etdi. Xitoy infratuzilma diplomatiyasi, ishlab chiqarish salohiyati va madaniy kontent eksportini kuchaytirayotgan bo'lsa, Yaponiya yuqori texnologiyalar va pop-madaniyat orqali xalqaro auditoriyani kengaytirmoqda. Germaniya, Fransiya va Shveytsariya kabi Yevropa davlatlari siyosiy nufuz, iqtisodiy raqobatbardoshlik hamda tarixiy imijning barqarorligi bilan ajralib turadi.

Shu bilan birga, uzluksiz rivojlanayotgan yangi markazlar ham tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda. Xususan, Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni va Qatar global sport tadbirlari, turizm salohiyati va investitsion brend yaratish orqali o'z ta'sir doirasini kengaytirmoqda. Ushbu mamlakatlar "yumshoq kuch"ni iqtisodiy diversifikatsiya strategiyalari bilan uyg'unlashtirishga intilmoqda.

Davlatlarning reytingdagi dinamik harakati shuni ko'rsatadiki, imij faqat tashqi kommunikatsiya natijasi emas, balki ichki siyosat sifati, jamiyat farovonligi va milliy mahsulotlar sifatiga asoslangan tizimli jarayondir. Shu sababli "yumshoq kuch" ko'rsatkichlarini kuchaytirish xalqaro investitsiyalar oqimi, turizm rivoji, savdo hajmi va diplomatik ishonchning oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Rivojlangan davlatlar xalq diplomatiyasi strategiyalarida aynan ushbu mexanizmga tayanadi, chunki "yumshoq kuch" orqali shakllangan ijobiy tasavvur siyosiy va iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Davlat imijini shakllantirishda qo'llaniladigan xalq diplomatiyasi modellari<sup>7</sup>

| Davlat                     | Model                                                 | Izoh                                                                                         |
|----------------------------|-------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------|
| AQSH / Buyuk Britaniya     | Public Diplomacy, Strategic Communication             | Media va global kommunikatsiya kanallari orqali xalqaro auditoriyalar bilan tizimli ishlash. |
| Fransiya                   | Cultural Diplomacy, External Cultural Action          | Til, san'at va madaniy meros orqali yumshoq ta'sir mexanizmlarini rivojlantirish.            |
| Germaniya                  | International Cultural Policy (AKP)                   | Ta'lim va ilmiy hamkorlikka asoslangan uzoq muddatli madaniy diplomatiya modeli.             |
| Xitoy                      | People-to-People Diplomacy, Cultural Diplomacy        | Konfutsiy institutlari orqali madaniy ta'sir doirasini kengaytirish.                         |
| Yaponiya                   | Culture Diplomacy, Cool Japan                         | Anime, manga va kreativ industriyalar orqali global imij shakllantirish.                     |
| Rossiya                    | Humanitarian International Policy, Cultural Diplomacy | Rus tili va diaspora orqali mintaqaviy gumanitar ta'sirni mustahkamlash.                     |
| Janubiy Koreya             | K-Culture Diplomacy, Hallyu Diplomacy                 | K-pop va kreativ eksportga tayangan soft power modeli.                                       |
| Turkiya                    | Cultural and Religious Diplomacy                      | TIKA va Yunus Emre institutlari orqali madaniy-diniy hamkorlikni rivojlantirish.             |
| Saudiya Arabistoni / Qatar | Sports Diplomacy, Cultural Diplomacy                  | Sport mega-loyihalari orqali davlat imijini modernizatsiya qilish.                           |
| Hindiston                  | Bollywood Diplomacy, Cultural Diplomacy               | Hind kinosi va yoga orqali global madaniy ta'sirni kengaytirish.                             |
| Italiya                    | Heritage-based Cultural Diplomacy                     | Moda, dizayn va tarixiy madaniy meros eksportiga asoslangan diplomatiya.                     |

O'zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini mustahkamlash, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikning institutsional asoslarini kengaytirish va xalq diplomatiyasi salohiyatini rivojlantirish mamlakat taraqqiyoti strategiyalarida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "“O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son<sup>8</sup> Farmoni bilan tasdiqlangan strategiyasi mamlakatning jahon maydonidagi mavqei oshirish, milliy manfaatlarini global darajada ilgari surish hamda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan uzoq muddatli rivojlanish konsepsiyasi hisoblanadi. Strategiyada belgilangan beshta ustuvor yo'nalishdan biri — “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyilini izchil amalga oshirish bo'lib, u xalqaro hamjamiyatda O'zbekistonning ishonchli siyosiy hamkor va mintaqada barqarorlikni ta'minlovchi muhim kuch sifatidagi imijini yanada mustahkamlaydi.

Demak, so'nggi yillarda qabul qilingan milliy strategik hujjatlar O'zbekistonning xalq diplomatiyasi salohiyatini kengaytirish, tashqi kommunikatsiyalarni modernizatsiya qilish va davlatning xalqaro imijini zamonaviy talablar asosida shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ushbu yondashuv xalqaro hamkorlikning institutsional mexanizmlarini mustahkamlab, mamlakatning global integratsiya jarayonlarida faol ishtirokini ta'minlaydi hamda milliy brendni jahon miqyosida raqobatbardosh holga keltirishga turtki beradi.

Xalq diplomatiyasi O'zbekistonning xalqaro sahnadagi ijobiy imijini shakllantirish va mustahkamlashda hal qiluvchi o'rin tutmoqda. Madaniyat, san'at, ta'lim, ilm-fan, turizm, media va yoshlar tashabbuslarining uyg'unlashuvi O'zbekistonni global hamjamiyatda ochiq, zamonaviy, tinchliksevar, jozibador va keng ko'lamli hamkorlikka tayyor davlat sifatida namoyon qilmoqda. Yangi O'zbekistonning xalqaro maydondagi imiji qadriyatlar va innovatsiyalar uyg'unligi asosida shakllanib bormoqda, xalqaro muloqotga ochiqlik esa mamlakatning jahon hamjamiyatidagi mavqei toбора mustahkamlab kelmoqda.

Xalq diplomatiyasi aynan shu ijobiy imijning poydevorini yaratadigan, uni keng targ'ib qiladigan va dunyo miqyosida tanitadigan kuchli drayver sifatida o'z ahamiyatini yanada oshirmoqda. Zero, milliy merosni zamonaviy tafakkur bilan uyg'unlashtirish orqali O'zbekiston bugun o'zining yangi strategik bosqichiga dadil qadam qo'yimoqda.

Aynan ushbu uyg'unlashuv orqali ilm va ma'rifatga tayangan, innovatsion yangilanishlar bilan boyitilgan ijtimoiy rivojlanish jarayoni Uchinchi Renessans poydevorining shakllanishiga xizmat qilmoqda. Xalq diplomatiyasi esa mazkur poydevorni jahon sahnasida mustahkamlovchi asosiy intellektual va madaniy resurs sifatida maydonga chiqmoqda.

<sup>7</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>8</sup> <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida xalq diplomatiyasi davlatning ijobiy xalqaro imijini shakllantirish va mustahkamlashda muhim strategik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Axborot makonining globallasuvi va jamoatchilik fikrining ta'siri kuchayib borayotgan sharoitda "yumshoq kuch" mexanizmlari orqali xorijiy auditoriyalarda ishonch va jozibadorlikni shakllantirish davlatlar tashqi siyosatining ajralmas qismiga aylanmoqda. Shu jihatdan, xalq diplomatiyasi tashqi kommunikatsiyaning oddiy shakli emas, balki uzoq muddatli siyosiy va iqtisodiy manfaatlarni ta'minlovchi tizimli jarayon hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi xalq diplomatiyasini madaniyat, ta'lim, ilm-fan, turizm, media va raqamli diplomatiya vositalari orqali izchil amalga oshirish xalqaro hamkorlikni kengaytirish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda milliy brendni mustahkamlashga xizmat qilishini tasdiqlaydi. O'zbekiston misolida olib borilgan tahlillar so'nggi yillarda mamlakatda ochiq tashqi siyosat, madaniy-gumanitar hamkorlik va xalqaro almashuvlarning faollashuvi orqali xalq diplomatiyasining institutsional asoslari shakllanayotganini ko'rsatadi. Bu jarayonlar O'zbekistonning tinchliksevar, ishonchli va hamkorlikka tayyor davlat sifatidagi imijini xalqaro maydonda mustahkamlashga zamin yaratmoqda.

Shu bilan birga, xalq diplomatiyasi salohiyatini yanada oshirish uchun uning mexanizmlarini tizimlashtirish, raqamli platformalardan samarali foydalanish, fuqarolik jamiyati va nodavlat sektor ishtirokini kengaytirish hamda milliy madaniy kontentni global auditoriyaga mos formatlarda ilgari surish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar O'zbekistonning xalqaro imijini mustahkamlash, global muloqotdagi mavqeiini oshirish va milliy manfaatlarni samarali ilgari surishda xalq diplomatiyasining rolini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – T.: O'zbekiston, 2018.
2. Anholt S. Competitive Identity: The New Brand Management for Nations, Cities and Regions. – New York: Palgrave Macmillan, 2007.
3. Brand Finance Global Soft Power Index 2024. – London: Brand Finance, 2024.
4. Nye J. S. Soft Power: The Means to Success in World Politics. – New York: PublicAffairs, 2004.
5. Tsvetkova N. A. Programmalar Web 2.0 AQShning ommaviy diplomatiyasida // AQSh va Kanada: siyosat, iqtisodiyot va madaniyat, 2011, №3.
6. Kasimova Z. G'. Madaniy diplomatiya asosida davlat ijobiy imijini shakllantirish jarayonlari (Yaponiya va Xitoy Xalq Respublikasi tajribasi misolida). PhD dissertatsiyasi. – T., yil ko'rsatilmagan.
7. Kasimova Z. G'. "Yumshoq kuch" diplomatiyasi. – T.: Tafakkur nashriyoti, 2025.
8. Kasimova Z. G'. Turizmni rivojlantirishda ijtimoiy media marketing samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish. (DSc) dissertatsiya avtoreferati. – T., 2025.
9. Kasimova Z. G'. Turizmni rivojlantirishda ijtimoiy tarmoqlar samaradorligini oshirish yo'llari. – Baski Askara: Ildem Yayinlari, 2025.
10. Kasimova Z. G'. Madaniy diplomatiya asosida davlat ijobiy imijini shakllantirish jarayonlari. Monografiya. – T., 2024.
11. The Edward R. Murrow Center for Public Diplomacy. Definitions of Public Diplomacy. URL: <http://fletcher.tufts.edu/Murrow/Diplomacy/Definitions>
12. Anholt S. Nation Brand Hexagon. URL: [https://www.researchgate.net/figure/Nation-Brand-Hexagon-Simon-Anholt-2000\\_fig1\\_325803819](https://www.researchgate.net/figure/Nation-Brand-Hexagon-Simon-Anholt-2000_fig1_325803819)
13. UNESCO. UNESCO 43rd General Conference Opens in Samarkand, Uzbekistan. URL: <https://www.unesco.org/en/articles/unesco-43rd-general-conference-opens-samarkand-uzbekistan>
14. Islom sivilizatsiyasi markazi. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/983>
15. University of Oxford. Introduction to Uzbek Language Course. URL: <https://www.ames.ox.ac.uk/article/introduction-uzbek-language-course>
16. ACDF. Woven Legacies at "Threads of Impact" Exhibition in Doha. URL: <https://acdf.uz/news/acdf-showcases-woven-legacies-at-threads-of-impact-exhibition-in-doha>
17. Bukhara Biennial. URL: <https://www.bukharabiennial.uz>
18. Kursiv Media. Zakovat Asian Cup II to Take Place in Bishkek. URL: <https://uz.kursiv.media/en/2025-08-18/zakovat-asian-cup-ii-to-take-place-in-bishkek-with-teams-from-kyrgyzstan>
19. Zakovat Gambit. URL: <https://gambit.zakovatklubi.uz>
20. Expo 2025 Osaka. Uzbekistan Pavilion. URL: <https://www.expo2025uzbekistan.uz>
21. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. URL: <http://www.stat.uz>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 12

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>